

**“Dehqonobod kaly zavodi” aksiyadorlik jamiyatni  
yagona aksiyadorining  
3 -son qarori**

2023-yil 27-fevral  
soat 11:00

Toshkent shahri  
Navoiy ko‘chasi, 38-uy

“Dehqonobod kaly zavodi” AJ tomonidan muomalaga chiqarilgan 2 301 392 924 315 (ikki trillion uch yuz bir milliard uch yuz to‘qson ikki million to‘qqiz yuz yigirma to‘rt ming uch yuz o‘n besh) dona oddiy egasining nomi yozilgan hujjatsiz ovoz beruvchi aksiyalari Jamiyat yagona aksiyadori – “O‘zkimyosanoat” AJga tegishli bo‘lganligi sababli kvorum 100 foizni tashkil qiladi.

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-moddasi hamda jamiyat Ustaviga muvofiq 2023-yilning 27-fevral kuni yakka tartibda qabul qilindi va yozma shaklda rasmiylashtirildi.

**KUN TARTIBI:**

**“Dehqonobod kaly zavodi” aksiyadorlik jamiyatining ichki me’yoriy hujjatlari tasdiqlash.**

*“Affillangan shaxslarning hisobini yuritish va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish” tartibi;*

*“Boshqaruv va nazorat organlari hisobotlariga doir talablar to‘g‘risida”gi nizom;*  
*“Yirik bitimlarni tuzish” tartibi;*

*“Jamiyat boshqaruv organlarining yagona aksiyador va investorlar bilan o‘zaro hamkorligi” tartibi.*

Jamiyatning mazkur ichki me’yoriy hujjatlari loyihibarini tasdiqlash uchun taqdim etildi (*ilova qilinadi*).

**Kun tartibidagi masala yuzasidan qaror qilindi (2 301 392 924 315 dona ovoz, 100 %):**

1. “Dehqonobod kaly zavodi” AJda “Affillangan shaxslarning hisobini yuritish va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish” tartibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “Dehqonobod kaly zavodi” AJning “Boshqaruv va nazorat organlari hisobotlariga doir talablar to‘g‘risida”gi nizomi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. “Dehqonobod kaly zavodi” AJning “Yirik bitimlarni tuzish” tartibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. “Dehqonobod kaly zavodi” AJ “Boshqaruv organlarining yagona aksiyador va investorlar bilan o‘zaro hamkorligi” tartibi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. “Dehqonobod kaly zavodi” AJ boshqaruvi raisi v.b. (Usarov):

- tasdiqlangan ichki me’yoriy hujjatlarni jamiyat faoliyatiga tatbiq etsin hamda qat’iy amal qilinishini nazoratga olsin;

- mazkur qarorni “Korporativ axborot yagona portal” ([www.openinfo.uz](http://www.openinfo.uz)) va jamiyatning rasmiy veb-sayti ([www.uz-potash.uz](http://www.uz-potash.uz))da belgilangan tartibda e’lon qilinishi ta’minlasin.

**“O‘zkimyosanoat” AJ  
boshqaruv raisi v.v.b.**



Y. Korjikov